MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№3

ILMIY ELEKTRON JURNALI

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovациyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No’rbo’ta o’g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иқтисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloyevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отақулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга таҳлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Xayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иқтисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлиигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne’matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187

26.	Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o‘g‘li	O‘zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo‘llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O‘zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne’matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta’minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo‘llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg‘unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o‘g‘li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o’zbekiston sharoitida qo’llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller’s brand equity model and Aaker’s brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo’nalishlari	310
43.	Jo‘rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotinining dolzarb masalalari	317
44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun’iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельком хозяйстве	346
49.	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365

52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo’ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug‘bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta’minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G’ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451
63.	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни	459
64.	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O‘zbekistonga qo’llash imkoniyatlari	471
65.	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funksiya va prinsiplari	477
66.	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67.	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko‘rsatkich asosida O‘zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68.	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta’sir qiluvchi omillar tahlili	501
69.	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O‘zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70.	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71.	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526

SAMARQAND VILOYATIGA JALB QILINGAN INVESTITSIYALARNI IQTISODIY TAHLILI VA ULARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich

“iqtisodiyot va menejment” kafedrasining dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
E-mail baxtiyorazizkulov@gmail.com
ORCID:0009-0005-4691-5577

Xasanova Dilnoza Jamshid qizi
iqtisodiyot fakulteti «Menejment» yo`nalishi talabasi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
E-mail: dilnoza07xasaova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Samarqand viloyatiga jalb qilingan inves-titsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanish imkoniyatlari, markazlashgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlanishi, asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori, asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati, investitsiyaviy jozibadorligi va investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo‘llari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Investitsiyalar, iqtisodiy tahlil, moliyalashtirish, investitsiyalar miqdori, investitsiyaviy jozibadorligi.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИЙ, ПРИВЛЕЧЕННЫХ В САМАРКАНДСКИЙ РЕГИОН, И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Азизкулов Бахтиёр Хушвактович
доцент кафедры экономики и менеджмента, кандидат экономических наук, Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводство и биотехнология
E-mail baxtiyorazizkulov@gmail.com
ORCID:0009-0005-4691-5577

Хасанова Дильноза Джамшид кизи
студентка экономического факультета (специализация «Менеджмент»)
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводство и биотехнология
E-mail: dilnoza07xasaova@gmail.com

Аннотация. *В статье представлен экономический анализ инвестиций, привлеченных в Самаркандский регион, и возможностей их использования. Рассматривается распределение централизованных инвестиций по источни-кам финансирования, объем инвестиций в основные средства, темпы роста инвестиций в основные средства, инвестиционная привлекательность и основные методы привлечения инвестиций.*

Ключевые слова: *Инвестиции, экономический анализ, финансирование, объем инвестиций, инвестиционная привлекательность.*

ECONOMIC ANALYSIS OF INVESTMENTS ATTRACTED TO THE SAMARKAND REGION AND THE POSSIBILITIES OF THEIR USE

Bakhtiyor Khushvaktovich Azizkulov
Associate Professor of the Department of Economics and Management, PhD in Economics, Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology
E-mail baxtiyorazizkulov@gmail.com
ORCID:0009-0005-4691-5577

Khasanova Dilnoza Jamshid kizi
Student of the Faculty of Economics (specialization "Management"), Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology
E-mail: dilnoza07xasaova@gmail.com

Abstract. The article presents an economic analysis of investments attracted to the Samarkand region and the possibilities of their use. The article considers the distribution of centralized investments by sources of financing, the volume of investments in fixed assets, the growth rate of investments in fixed assets, investment attractiveness and the main methods of attracting investments.

Keywords: Investments, economic analysis, financing, volume of investments, investment attractiveness

Kirish

Respublikamiz hududlari iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilishning faollik darajasi ularga o‘zlashtirilayotgan investitsiyalarning yalpi hududiy mahsulotga nisbatan ulushi bilan ifodalanadi. Makroiqtisodiy tahlilda keng qo‘llaniladigan investitsiya normasi (rate of investment) ko‘rsatkichi ham aynan asosiy kapitalga investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi [1].

Ta’kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga zamonaviy ilm-fan yutuqlari, investitsion g‘oyalar va texno-logiyalarni joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin, ayni paytda O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida murakkab moliyaviy-iqtisodiy muammolarini hal etish uchun investitsion muhit jozibadorligi haqidagi masalalarni o‘rganish va yoritish talab qilinadi. Bu esa milliy iqtisodiyotimizga keng miqyosdagi investitsiyalar oqimini olib kelishi muqarrar[2].

Fikrimizcha, hozirda davlat investitsiyalarining imkoniyatlari cheklangan, buning ustiga samaradorligi ham past, chunki ulardagi ayrim, xususan, moliyaviy muammolar hal etilmagan. Shuning uchun mahalliy va chet el investitsiyalarining talabi to‘liq qondirilmagan. Ular uchun esa qulay investitsion muhitning jozibador-ligi kerak bo‘lib, bu muhit O‘zbekistonning xalqaro kapital bozorlarida raqobatlashishi va mamlakatdan kapital oqimi chiqib ketishini to‘xtatishga imkon beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari oqimi kapitallarni mamlakatga kirib kelishini bevosita ta’minlaydi. Hozirgi paytda investitsion muhit ko‘ngildagidek emasligi O‘zbekistonning ayrim hududlari egallab turgan o‘rni sezilarli darajada susayishi bilan izohlanadi, natijada ushbu hududlar investitsiyalar uchun raqobatda aksariyat hududlardan ortda qolishiga sabab bo‘lmoqda [3].

Hozirda ayrim hududlardagi asosiy muammolarning mavjudligi investitsiy-alash imkoniyatlarini cheklaydi, buning natijasida samaradorligini ham pasaytiradi, chunki ulardagi moliyaviy muammolarning hal etilmaganligi ularni oqsoq hududlar qatorida bo‘lishiga asosiy

sabablardan bo‘ladi. Ayni paytda hududlarda yangi korxonalarni tashkil etish bo‘yicha tarkibi tahlilini ko‘rganimizda, ularni o‘sishini kuzatamiz. Lekin, shu bilan birga ayrim hududlarda ularni ulushi qoniqarsiz darajadaligini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, bankrot jarayonining o‘zi uchun asoslarning etarli darajada tartibga solinmasligi ham investorning huquqlariga jiddiy xavf solishi mumkin. Ayniqsa, hozirda kreditorlarning e’tirozlarini ko‘rib chiqish tartibi ham katta muammolar bilan amalga oshirilmoqda. Bir vaqtning o‘zida bank kreditori bo‘lgan yirik investorlardan biri bankrotlik jarayonining «shaffof» emasligi va qonunchilikdagi kamchiliklar natijasida ijobiy natijaga erisha olmaydi.

O'zbekistonda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha bir qator islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya sohasida yuzaga keladigan muammolar, monopoliyalar, investitsiya jarayonlarining murak-kabligi, sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, hamda sarmoyadorlarning foyda olish uchun shart-sharoitlar yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bozorda ayrim investorlarning ustun mavqega ega bo'lishiga individual imtiyoz va preferensiyalar, ularning faoliyati uchun eksklyuziv sharoitlar yaratilganligi, bu esa boshqa tadbirkorlik subyektlarining bozorga kirish imkoniyatini cheklashga olib kelmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish jarayonini iqtisodiy tahlili va prognozlashtirish modelini ishlab chiqishda O. Abdullayev, A. Abdullayev, S. G‘ulomov, A. Ishnazarov, Y.R. Magnus, M. Ivanova, Endryu F. Sigel kabi olimlarning ilmiy asarlari muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy tahlil, ya'ni korrelyatsion-regression tahlil asosida istiqbollashtirish usullarini ishlab chiqib, ularni takomillashtirish bo'yicha ishlarda amalga oshirishgan [4].

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatlarning investitsiyaviy jozibador-ligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, investitsiyaviy jozibadorlik holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda yo`nalish bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy tizimdagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi. O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davomida xavfsizlikni, barcha sohalarda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash borasida izchil siyosat olib bordi. Inson hayot faoliyatining barcha sohalarida unga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatarlar mavjud bo'lib, shu faoliyatni amalga oshirishda, yaqin va uzoqni ko'zlab, maqsadlar qo'yishda ularni hisobga olish kerak bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Izlanishlarimiz natijasida **S**amarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoni-yatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo`yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar

ishlab chiqilgan. Tadqiqotning metodologik asosini nazariy va amaliy ma`lumot-larni, qonunchilik va boshqa xuquqiy xujjatlarni, adabiy manbalar va nashrlarni o`rganish natijasida shakllantirildi. Tadqiqotda nazariya va amaliyot o`rtasidagi bog`liqlarga asoslanib, shu bilan birgalikda tahlil, taqqoslash va sintez kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, nou-xauni berish, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va b. ga mablag‘ sarflash) ko‘rinishlari bor. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya faol o‘sib bormoqda: 1980-yillar o‘rtalarida jahon bo‘yicha umumiy yillik Investitsiya hajmi 450 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1990-yillar o‘rtalariga kelib Investitsiya hajmi 2 trln. dollardan oshdi [5].

Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag‘lari, chet el

investitsiyalari, korxonalarning o‘z mablag‘lari va aholi jamg‘armalari qatnashmoqda. Respublikada aholining qimmatli qog‘ozlarga jamoaviy investit-siyani amalga oshiradigan xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog‘i rivoj topdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan jadal islohotlar, tadbir-korlik faoliyati uchun berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar, qulay investitsion muhitning yaratilayotgani nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlarning ham qiziqishini oshirmoqda. Buning samarasi o‘laroq, yurtimizda xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi ortib, ular ishtirokida ko‘plab qo‘shma korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro biznes forumi O‘zbekistonga xorijiy investorlarni keng jalb etish, ularni mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhiti bilan yaqindan tanishtirish hamda hamkorlik aloqalari ko‘lamini yanada kengaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi, deyish mumkin.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining asosiy kapitalini ko‘paytirishga 17 982,6 mlrd so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 125,0 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 12 401,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.

1-jadval.

Samarqand viloyatining 2025-yil (yanvar-iyun)da moliyalashtirish bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori [5].

Moliyalashtirish manbalari	**Mlrd. so‘m**	**O‘sish sur’ati, %**	**Umumiy hajmga nisbatan ulushi, %**
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	**17 982,6**	**125,0**	**100,0**
shu jumladan:			
Markazlashgan investitsiyalar	**1 734,3**	**80,4**	**9,6**
Byudjet mablag‘lari	674,2	71,2	3,7
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari	78,4	82,3	0,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	42,7	50,8	0,3
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari	939,0	91,1	5,2
Markazlashmagan investitsiyalar	**16 248,3**	**132,9**	**90,4**
Korxonalarning mablag‘lari *(mahalliy byudjet mablag‘larini qo‘shgan holda)*	3 382,8	105,7	18,8
Aholi mablag‘lari	822,5	137,0	4,6
To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar	11 462,9	145,2	63,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	580,1	110,5	3,2

Jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkinki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 17 982,6 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Investitsiyalarning asosiy qismi markazlashmagan investitsiyalar hissasiga to'g'ri kelib, ularning ulushi 90,4 foizni tashkil etgan. Bu holat iqtisodiyotda xususiy sektor, korxonalar hamda xorijiy investorlarning investitsiya jarayonlaridagi faolligi ortib borayotganligini ko'rsatadi. Aksincha, markazlashgan investitsiyalarning ulushi atigi 9,6 foizni tashkil etgani davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan investitsiyalarning nisbatan qisqarayotganini anglatadi.

Markazlashgan investitsiyalar tarkibida eng katta ulush O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlariga (5,2 foiz) to‘g‘ri kelmoqda. Byudjet mablag‘lari ulushi esa 3,7 foizni tashkil etib, ularning o‘sish sur’ati 71,2 foiz bo‘lgan. Shu bilan birga, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi

mablag‘larining ulushi nisbatan past bo‘lib, bu davlat investitsiyalarini moliyalashtirishda ushbu manbalarning imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatadi. Natijada markazlashgan investitsiyalarda tashqi qarz mablag‘lariga tayanish darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

Markazlashmagan investitsiyalar tarkibida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar mutlaq ustunlikka ega bo‘lib, ularning ulushi 63,8 foiz, o‘sish sur’ati esa 145,2 foizni tashkil etgan. Bu mamlakat investitsiya muhitining jozibadorligi ortib borayotganini hamda xorijiy investorlar ishonchi mustahkamlanayotganini ifodalaydi. Korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar ulushi 18,8 foizni tashkil etishi korxonalarning moliyaviy barqarorligi va ichki investitsiya salohiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tijorat banklari kreditlari ulushining 3,2 foiz darajasida qolayotgani bank kreditlarining investitsiyalarni moliyalashtirishdagi o‘rni hali yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar[62]

Hudud	2024-yil yanvar–iyun (mlrd so‘m)	2025-yil yanvar–iyun (mlrd so‘m)	O‘tgan yilning mos davriga o‘sish sur’ati, %	Jami investitsiyalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSH doll.
Viloyat bo‘yicha	**13 500,4**	**17 982,6**	**125,0**	**479 535,0**
Samarqand sh.	5 240,5	4 299,4	77,0	19 098,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	152,0	693,7	4,3 m.	30 584,0
Oqdaryo	356,0	535,2	141,2	22 326,7
Bulung‘ur	470,8	630,4	125,6	29 998,3
Jomboy	709,4	663,5	87,7	14 731,8
Ishtixon	253,2	537,8	199,2	33 002,7
Kattaqo‘rg‘on	440,8	855,4	181,9	28 830,0
Qo‘shrabot	510,2	657,6	120,5	20 466,4
Narpay	331,6	555,0	157,0	7 708,8
Payariq	542,1	877,7	151,9	293,3
Pastdarg‘om	1 031,7	1 213,8	110,4	18 043,1
Paxtachi	292,8	639,3	2,0 m.	18 120,7
Samarqand	894,5	1 527,5	160,6	20 987,0
Nurobod	1 272,0	2 979,1	2,2 m.	195 678,2
Urgut	593,2	667,8	105,6	19 664,3
Toyloq	409,6	649,4	148,9	0,0

Jadval ma’lumotlari Samarqand viloyatida 2025-yilning yanvar–iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 17 982,6 mlrd so‘mni tashkil etganini va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 125,0 foizga o‘sganini ko‘rsatadi. Bu viloyatda investitsion faollikning izchil oshib borayotganini hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan investitsiya siyosati samaradorligini ifodalaydi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmi hududlar kesimida bir xil taqsimlanmagan bo‘lib, ayrim tuman va shaharlarda yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilgan bo‘lsa, ayrim hududlarda esa investitsiya faolligi pasaygan. Xususan, Samarqand shahrida investitsiyalar hajmining kamayishi investitsiya loyihalarining hududlar bo‘yicha qayta taqsimlanayotganini ko‘rsatadi.

[62] Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Hududlar kesimida eng yuqori o‘sish sur’atlari Nurobod, Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on shahri, Ishtixon va Kattaqo‘rg‘on tumanida qayd etilgan. Ayniqsa, Nurobod tumanida investitsiyalar hajmining bir necha barobarga oshishi yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi bo‘yicha ham Nurobod tumani mutlaq yetakchi bo‘lib, bu hudud xorijiy investorlar uchun eng jozibador investitsiya markazlaridan biriga aylanayotganini ko‘rsatadi. Aksincha, Payariq va Toyloq tumanlarida xorijiy investitsiyalar hajmining juda pastligi yoki mavjud emasligi ushbu hududlarda investitsiya muhitini yanada yaxshilash zarurligini anglatadi.

Tahlil natijalari viloyatda investitsiya faolligi yuqori darajada saqlanayotganini, biroq hududlar o‘rtasida investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari va samaradorligida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Kelgusida investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida iqtisodiy salohiyati nisbatan past hududlarda investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish, hududiy investitsiya dasturlarini kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish hamda xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa investitsiyalarning hududlar bo‘yicha mutanosib taqsimlanishini ta’minlab, Samarqand viloyatining barqaror va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Bugungi kunda yurtimizda faoliyatini olib borayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarga soliq imtiyozlari va bojlardan bir qancha engilliklar va imtiyozlar belgilangan bo‘lib, ular ya’ni investitsiya kompaniyalari, shuningdek, uning ta’sischilari olingan dividend va foizlar bo‘yicha daromadlar bilan birga foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va er solig‘idan, shuningdek, uning mol-mulki va aktivlarini realizatsiya qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘idan 3 yil muddatga ozod qilinishi; ustav fondining kamida 30 foizi investitsiya kompaniyasi mablag‘lari hisobidan shakllantirilgan yangi tashkil etilgan korxonalarga xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun ham qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalar tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, shuni takidlash lozimki, yaqin kelajakda Samarqant viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish va jozibadorligini oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish natijasida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Viloyatda sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi o‘rta darajada. Yaqin kelajakda tumanlar xududida kompleks ishlarini jadal sur’atlarda olib borishni hisobiga yangi sanoat korxonalarini qurib ishga tushirish.

2. Ma’lumki, viloyat o‘zining sug‘orma yerlari va dehqonchilikka mosligi bilan mashhur hisoblanadi. Kelajakda nafaqat paxta yoki g‘alla, balki sabzavot ekinlarini ham ko‘paytirish va shu joyning o‘zida qayta ishlash zarur.

3. Viloyat o’ziga xos tabiiy iqlim sharoitiga ega bo’lib, bu yerga qishloq xo’jaligining bog’dorchilik, meva-sabzavotchilik, polizchilik sohasini hamda shuningdek viloyat yer fondi tarkibiga yaylovzorlarning katta maydonlarga egaligi chorvachilik va asalarichilik kabi sohalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

4. Viloyatda qishloq xo’jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlovchi yangi zamonaviy korxonalarni qurib ishga tushirish orqali xalq ist’emol mollarini ishlab chiqarish va uni eksport qilishni yo’lga qo’yish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. O‘RQ -598. 14.12.2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi-ning 2023 — 2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida. PQ-459. 28.12.2022

3. Azizkulov B., Sayfullaev S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlatning moliyaviy–investitsion siyosati va qabul qilingan iqtisodiy islohotlar. SCIENCEPROBLEMS.UZ - Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari *№ S/3 (4) – 2024.* https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N18

4. Karlibayeva R.X, Investitsiyalarni tashkil etish va boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T., Cho‘lpon nashriyoti 2011. 122 b.

5. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.